

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TABIIY FANLAR FAKULTETI**

**5110400- BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI**

**ta'lim yo`nalishi IV kurs"V" guruhi talabasi**

**IMOMOVA ZULXUMOR NURALI QIZIINING**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA  
EKOLOGIK MUVOZANAT, EKOLOGIK MADANIYAT VA ONG  
TUSHUNCHALARINING TAHLILI**

**Ilmiy rahbar: dots. Shamsidinova G. D.**

**Navoiy – 2017 yil**

## **M U N D A R I J A**

|                                                                                                            |              |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                         | <b>3-8</b>   |
| <b>I-BOB. O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA ATROF-<br/>MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI TALQINI.....</b>  | <b>9-35</b>  |
| I.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BARQAROR RIVOJLANISH<br>TARAQQIYOTI DASTURINING UMUMIY TAVSIFI.....           | 9-15         |
| I.2.BARQAROR TARAQQIYOTNI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO<br>TASHKILOTLAR HAMKORLIGI.....                        | 16-30        |
| I.3.TA'LIM MUASSASALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH TA'LIMINI<br>JORIY QILISH MASALALARI.....                   | 31-35        |
| <b>II-BOB. EKOLOGIK MUVOZANAT, EKOLOGIK MADANIYAT VA ONG<br/>TUSHUNCHALARINING TAHLILI .....</b>           | <b>36-60</b> |
| II.1.EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI.....                                                            | 36-41        |
| II.2.TABIATDAGI DEGRADATSIYA JARAYONLARINI BARTARAF<br>QILISH VA EKOLOGIK MUVOZANATNI BARQARORLASHTIRISH.. | 41-50        |
| II.3.YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYAT,MAFKURA VA ONG<br>TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH.....                    | 51-53        |
| II.4.TABIAT MUHOFAZASIGA OID FIKRLAR TALQINI.....                                                          | 53-59        |
| II.5. TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA OID MEYORIY HUJJATLAR..                                                   | 60           |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                         | <b>61-64</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                             | <b>65</b>    |

## KIRISH

Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suvining o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlar, yer osti va yer usti boyliklari, o'simliklar va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib, iqlim o'zgarishlari kelib chiqayotganligi, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi ekologik ahvol ham nihoyatda keskinlashib, ijtimoiy tus ola boshlayotganligidan darak beradi. Iqlim o'zgarishlari keyingi paytlarda barcha mintaqalardagi hayot tarzini tashvishga solayotgan muammolardan biri bo'lib, mazkur masala yuzasidan fandagi eng so'nggi ma'lumotlar quyidagicha: 1907-2006 yillarda yerning ustki qismida o'rtacha haroratning ko'tarilishi  $+0,7^{\circ}\text{C}$ , dunyo okeani o'rtacha sathining ko'tarilishi  $+0,17\text{ m.}$ , shimolda qor qatlamining kamayishi keyingi o'n yilliklarda  $-2,7\%$ ni tashkil etadi [1]. Azot, uglerod oksidlari va uglevodorodlar, atmosferada kimyoviy reaksiyaga kirishib parnik gazlarini hosil qiladi, ularning atmosfera havosidagi miqdorining oshishi iqlim o'zgarishlariga olib keladi. Ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati, gaz transporti va chiqindilarni saqlash vaqtida quyidagi parnik gazlari hosil bo'ladi:  $\text{SO}_2$  – uglerod 2 oksidi -yoqilg'i yonishi hisobiga,  $\text{CH}_4$  – metan – chiqindi gaz, transport vositalari hisobiga,  $\text{N}_2\text{O}$  – moddasi – kimyo, qishloq xo'jaligi hisobiga, xlorftorouglerodlar esa- sovituvchi agent va hokozolar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992 yilda qabul qilingan «Iqlim o'zgarishlari» to'g'risidagi konvensiyasi YUNEP va xalqaro meteorologiya tashkiloti bilan birgalikda ishlab chiqilgan bulib, mazkur konvensiyaga inson faoliyati tufayli asta- sekinlik bilan global haroratning ko'tarilishi natijasida havoning global qizib ketishiga qarshi kurash borasida boshlangan harakatlar asos bo'ldi. Rio-de Janeyroda imzolangan mazkur konvensiyani 1998 yilda 174 mamlakat ratifikatsiya qildi. Iqlim o'zgarishlari muammolari bo'yicha BMT koshida maxsus tashkil etilgan hukumatlararo ekspertlar guruhi axborotlar berib, mazkur guruh 1988 yilda tashkil topgan, 2500 nafar olimdan iboratdir, ularning faoliyatini YUNEP va Butunjahon meteorologiya tashkiloti muvofiqlashtirib

turadi. Ekspertlar tomonidan 1995 yilga kelib, «Inson global iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatadi» degan xulosaga kelindi. 1997 yilda Kiota shahrida huquqiy majburiy protokol imzolaniib, unga muvofiq sanoati rivojlangan mamlakatlar 2008-2012 yillar mobaynida o'zlari chiqarayotgan olti xildagi gazni 1990 yildagidan ham 5,2 foizga kamaytirishlari rejalashtirilgan edi[1].

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai-nazaridan, yoshlar ongida ekologik muvozanat, ekologik madaniyat va ong tushunchalarini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir. Ekologik xavfsizlikning mintaqaviy muammolari hisoblangan: atrof muhitning transchegaraviy ifloslanishi, bioxilma-xillikni kamayishi, iqlim o'zgarishlari, Orol dengizi fojeasi, atmosfera havosining ifloslanishi va unda  $O_2$  miqdorining kamayishi, havo harorati va suv sathining ko'tarilishi, ichimlik suvining ifloslanishi, sun'iy tog'lar hosil bo'lishi, tuproq eroziyasi va uning ifloslanishi, atmosferada ozon qatlami( $O_3$ ) ning yemirilishi, energetik resurslarining yetishmovchiligi, chiqindilar boshqaruvi, aholi sonining keskin oshib ketishi hamda turli kasalliklarning ko'payib ketishini oldini olish, atrof - muhit tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va antropogen omillarining o'zaro aloqalari hozirgi globallashuv davrida ayniqsa juda muhim ahamiyatga egadir.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta ahamiyat berilib, uning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilinmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Hozirgi globallashuv jarayonida har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi – bu hududdagi tabiiy resurslar miqdorining mavjudligiga hamda atrof muhit muhofazasi masalalariga bog'liqdir. Mustaqil O'zbekiston respublikasi bu sohada alohida o'rin tutib, ekologik muammolar bilan shug'ullanuchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir. Mazkur tashkilotlar Birlashgan

Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib, butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi ko'plab g'oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar. Demokratik tamoyillarni keng quloch yozdirish, erkinlikning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochishga sabab bo'ladi. Shuningdek, globallashuv davri bilim va axborotlarni keng tarqatish, dunyoning har bir burjida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni o'zgartirib yuborishi mumkin.

Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, is'temol mahsulotlarisiz bir daqiqa ham yashash mumkin emas. Jamiyatning tabiat bilan aloqadorligi, tabiiy muhit hamda inson hayoti va faoliyatining ta'siri va aks ta'siri kurrayi zamindagi ayrim bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga ta'aluqli bo'libgina qolmay, balki barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xildagi umumiy, doimiy, abadiy va zaruriy shartidir.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishni bajarish asnosida quyidagi vazifalarni bajarish maqsad qilib qo'yildi.

#### **Kirish qismida:**

- Mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalarini aniq tahlil qilish;
- Mavzuning ilmiy, amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, tadqiqot ob'ekti va usullarini o'rganish;

**Asosiy qism I-bobda:** O'zbekistonning barqaror rivojlanishida atrof-muhit muhofazasi masalalari talqini:

- O'zbekiston respublikasi barqaror rivojlanish taraqqiyoti dasturining umumiy tavsifi;
- Barqaror taraqqiyotni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar hamkorligi;
- Ta'lim muassasalarida Barqaror rivojlanish ta'limini joriy qilish masalalari,
- **II-bobda:** Ekologik muvozanat, ekologik madaniyat va ong tushunchalarining tahlili:

- Ekologik ta'lim va tarbiya masalalari,
- Tabiatdagi ekologik muvozanat va uni barqarorlashtirish;
- Yoshlarda ekologik madaniyat, mafkura va ong tushunchalarini shakllantirish;
- Tabiat muhofazasiga oid fikrlar talqini.

**Xulosa qismida:** Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suvining o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlar, yer osti va yer usti boyliklari, o'simliklar va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib, iqlim o'zgarishlari kelib chiqayotganligi hamda Barqaror taraqqiyotni amalga oshirishga oid nazariy va amaliy bilimlar qayd etildi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati:** Tabiiy boyliklardan foydalanish tabiatni muhofaza etish faoliyati va aholini ekologik jihatdan tarbiyalash masalasi g'oyat muhim bo'lib, kelgusida dunyo tamaddunining qaysi yo'nalishda rivojlanishini uning bugungi bosqichlari belgilab beradi. Ta'lim muassasalarida yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan birgalikda, ekologik- tarbiya-tafakkur-ong-mafkura masalalariga ham yangicha yondashish, har tomonlama shakllangan haqiqiy tabiat fidoiysi, jamiyatning barqarorligiga o'z hissasini qo'shadigan shaxsni tarbiyalash mavzuning amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, vazirliklar, idoralar hamda davlat tomonidan qabul qilingan ilmiy harakat rejasi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha gigiyenik milliy harakat rejasi, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejasi va boshqalarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Xalqaro hamkorligi tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, mazkur sohada asosiy e'tibor quyidagi jarayonlarga qaratilishi lozim:

- Orol havzasida yuzaga kelgan ekologik holatni yaxshilash;

- Flora va faunaning genetik fondini saqlash;
- Suv, tuproq va atmosferaning ifloslanishini oldini olish;
- Xavfli chiqindilarni atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni saqlash, zaharli kimyoviy moddalar ishlatilishni kamaytirish;
- Tabiiy resurslardan samarali foydalanish.

**Mavzuning amaliy ahamiyati** shundaki, ekologik xavfsizlikning mintaqaviy muammolarini bartaraf qilish birdaniga hal bo'ladigan jarayon emasligini inobatga olib, mazkur hududda istiqomat qiladigan xalq ommasini jalb etish zarurdir. Tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish, xalqlar va millatlarning ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy omillarini kuchaytirishdan iborat bo'lib, har bir ota – ona va o'qituvchi farzandlarini tabiatni sevish, ardoqlash, ona zaminga mehr qo'yishga, o'simliklar va jonivorlarni ardoqlashga o'rgatishi lozim. Ekologik yo'nalishdagi mazkur ishlar ishning amaliy ahamiyatini belgilab berib, insoniyatning tabiat boyliklaridan oqliona foydalanishi o'rniga, uning ijtimoiy, real imkoniyatlarini hisobga olmasdan, rivojlanish qonuniytlarini to'g'ri tahlil qilmasdan turib foydalanishi tabiatda tuproqning emirilishi, tuzli yomg'irlarning paydo bo'lishi, o'simlik va hayvonot olami noyob turlarining nobud bo'lishi hamda qirilib ketishi, atmosfera, gidrosfera, litosfera qatlamlarining nihoyat darajada ifloslanishiga olib keladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida jahon ilm-fanining jadallashib borayotgan, betimsol taraqqiyoti, aholi sonining global o'sishi, ishlab chiqarishning har tomonlama rivojlanib borishi, yangidan- yangi inshootlarni barpo etilishi, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanmaslik, tabiatdagi ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti va ob'ekti.** Bitiruv malakaviy ishi uchun tadqiqot ob'ekti sifatida, ilmiy -texnika taraqqiyoti jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, havo, suv, yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolarning kelib chiqishi bilan bog'liq masalalar hamda tabiat

muhofazasiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish va unga rioya etish haqidagi masalalar asos qilib olindi.

Mintaqadagi tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy meyyoriy hujjatlarning qabul qilinishi, ekologik xavfsizlikning global, mintaqaviy hamda mahalliy muammolarini bartaraf qilish masalalari hozirgi globallashuv davrida yana ham kattaroq ahamiyat kasb etmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ish 65 sahifadan iborat bo'lib, kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.



## **I-BOB. O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI TALQINI**

### **I.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BARQAROR RIVOJLANISH TARAQQIYOTI DASTURINING UMUMIY TAVSIFI**

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, o'qitish jarayonida,tabiat, jamiyat va inson munosabatlari uzviy aloqada ekanligi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish lozimligini yosh avlodlar ongiga to'g'ri yetkazish muhim jarayon hisoblanib,Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek,XX asrning oxiri,XXI asrning boshlarida “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat,mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik,qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir.Afsuski hali ko'plar bu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar”

---

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir.Mazkur tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib,butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi orzu- umidlarning amalga oshish imkoniyati mavhum bo'lgan ko'plab g'oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar.Demokratik tamoyillarni keng quloq yozdirish,erkinlikning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochish. shuningdek, globallashuv davri bilim va axborotlarni keng tarqatish,dunyoning har bir burchagida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni barkaror rivojlanish sari yunaltiradi.

### **I.2.BARQAROR TARAQQIYOTNI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO TASHKILOTLAR HAMKORLIGI**

Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolarning avj olib ketayotganligi sababli tabiatni inqirozga uchrashi mumkinligi, hech kimga sir bo'lmay qoldi, bu inqirozning oldini olish,ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli

bo'lish, shu maskanda yashayotgan har bir vijdonli kishining burchi hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish yer yuzidagi butun insoniyatni baxt-saodati, kelajakda yashaydigan avlod taqdiri uchun g'amxo'rlik qilishdir. Respublikaning birinchi Prezidenti, marhum I.A. Karimovning "Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini farzandlarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir",- deb bejiz aytmagan edilar. Tabiatni muhofaza qilish deganda butun insoniyat manfaatlarini ko'zlab, tabiatdan oqilona foydalanish, uni saqlash, qo'riqlash va tabiiy boyliklarini ko'paytirish yo'lida davlatlar va xalqlarning ilmiy jihatdan asoslangan kompleksi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilish ishiga ayniqsa, juda katta e'tibor berildi. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamondagi eng dolzarb muammolardan biri inson bilan tabiat o'rtasidagi va tabiat bilan inson o'rtasidagi, jamiyat bilan tevarak-atrofdagi muhit o'rtasidagi muammoning tarkibiy qismidir. Muammoning mohiyati shundaki, tabiat eng avvalo, inson uchun qo'riqlanishi kerak. Inson tabiat bilan har doim bir butunni tashkil qilgan, chunki inson tabiatning tarkibiy qismidir. Inson o'zining tabiat bilan bo'lgan bevosita aloqasi orqali tabiiy muhitga juda katta ta'sir qilib kelgan.

Xalqaro ekologik hamkorlik- yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli tadbir-choralar kompleksi tushuniladi.

### **I.3.TA'LIM MUASSASALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH TA'LIMINI JORIY QILISH MASALALARI**

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi masalalari hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, o'qitish jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mazkur masalani ijobiy echim topishiga imkon yaratadi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, XIX asrning oxiri, XX asrning

boshlarida “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat,mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik,qo’l qovushtirib o’tirish o’z-o’zini o’limga mahkum etish bilan barobardir.Afsuski hali ko’plar bu muammoga beparvolik va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo’lmoqdalar”.

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar bilan shug’ullanuchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir.Mazkur tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib,butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi orzu- umidlarning amalga oshish imkoniyati mavhum bo’lgan ko’plab g’oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar.Demokratik tamoyillarni keng quloch yozdirish,erkinlikning misli ko’rilmagan imkoniyatlarini ochishga sabab bo’ladi.Shuningdek, globallashuv davri bilim va axborotlarni keng tarqatish ,dunyoning har bir burjida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni o’zgartirib yuboradi.

## **II-BOB. EKOLOGIK MUVOZANAT, EKOLOGIK MADANIYAT VA ONG TUSHUNCHALARINING TAHLILI**

### **II.1.EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI**

Jahon “Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi”da –“Har bir kishi bilim olish huquqiga ega “deb yozib qo’yilgan bo’lib,mamlakatimizda ta’lim tizimiga g’oyat katta e’tibor qaratilgandir.Ta’lim muassasalarida ekologiya fanlarini o’qitishyoshlarni ekologiya haqidagi bilim doirasini kengaytirib, fikrlash qobiliyatini oshiradi, atrof-muhitga nisbatan e’tiborli bo’lish,ekologik muammolarni oldini oldirishga harakat qildiradi. BMT faoliyat boshlagan dastlabki o’n yilliklar kun tartibida ekologik muammolar qariyb ko’zga tashlanmagan edi. Tashkilot taraqqiyot maqsadlari uchun yaroqli jahon tabiiy resurslari ro’yxatini yaratishga asosiy e’tiborni qaratdi va ularni tasarruf etishdan, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun foyda olish yo’llarini ishlab chiqdi. 60-yillar davomida dengizlarning neft to’kilishi natijasida ifloslanishiga tegishli qator bitimlar tuzildi. Ammo atrof- muhitning holati global darajada yomonlashuvining davom etayotgani, xalqaro hamjamiyatni 70-yillardan boshlab

taraqqiyotning yer shari ekologiyasiga, kishilar farovonligiga qanday ta'sir etayotgani yanada ko'proq tashvishga sola boshladi va BMT atrof-muhitning ahvolini yaxshilaydigan "Barqaror taraqqiyot" kabi yangi konsepsiyaning bosh tarafdori bo'lgan yetakchi muassasaga aylandi.

## **II.2.TABIATDAGI DEGRADATSIYA JARAYONLARINI BARTARAF QILISH VA EKOLOGIK MUVOZANATNI BARQARORLASHTIRISH**

Tabiatdagi degradatsiya jarayonlarini bartaraf qilish va ekologik muvozanatni barqarorlashtirish maqsadida, qazilma boyliklar konlarini ishga tushirish, ulardan ma'danlarni qazib olish, transportda qayta ishlash korxonalariga tashish, rudalarni boyitish va ulardan kerak bo'lgan mahsulotlarni ajratib olish jarayonlari murakkab texnologik tizimlar masalalarining mukammalligi ko'rib chiqilishi lozim.O'zbekistonda yiliga 200 mln. tonnadan ziyod tog' jinslari qazib olinib, chiqindi sifatida tashlangan jinslarning hajmi 150 mln. m<sup>3</sup> dan ortiqni tashkil etadi. Kon va shahtalar atrofiga chiqarib tashlanayotgan qoplama jinslar faqat Olmaliq va Navoiy tog'- kon sanoati majmuasida 20 ming ra maydonni egallaydi. Chiqindilarni to'planishi katta maydonda tuproq va yaylovlardan foydalanishni cheklab, yer osti suvlarini ifloslaydi.

Ekologik degradatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablarini o'rganish, uning inson salomatligiga ta'siri va oqibatlarini o'rganish, keltirib chiqaruvchi kimyoviy omillarni bartaraf etish, respublika bo'yicha ekologik holatni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma'ruzalari, qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda boshqa vakolatli organlar bilan kelishilgan va qabul qilingan qarorlari, yetakchi ekolog olimlar, "Ekoharakat" vakillari va tajribali mutaxasislarning fikr-mulohazalari, ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

## **II.3.YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYAT,MAFKURA VA ONG TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Yoshlarga beriladigan ekologik ta'lim- tarbiyaning asl maqsadi: yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish,

ma'nan yetuk, tabiatga nisbatan mehr oqibatli, shuningdek, havoning musaffoligi, suvning sifati, tuproqning tozaligi sog'lom avlod uchun kafolat ekanini ularning ongiga singdiradan, kelajakda vatanimiz uchun chinakam sodiq insonlar bo'lib kamol topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Yoshlarimiz ongiga ekologik ta'lim - tarbiyani singdirishda nafaqat ona tabiat haqidagi nazariy bilimlar balki amaliy mahorot ham katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan turli tadbirlar ham muhim rol o'ynaydi. Ekologik savodxonlikka erishish yo'lida insonlarning ekologik bilim darajasini oshirish hamda mamlakat va regionlar bo'yicha atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida ma'lumotlar berish muhim ahamiyatga ega.

#### **II.4.TABIAT MUHOFAZASIGA OID FIKRLAR TALQINI**

O'tmish tarixga nazar tashlanganda, hamma zamonlarda ham tabiatga, uning boyliklariga nisbatan oqilona munosabat davlat rahbarlari tomonidan boshqarilganligini ko'zatiladi. Sohibqiron Amir Temurning tabiatni e'zozlash borasida olib borgan ishlari, shoh va shoir Boburning ona vatanga, uning yerlariga, suviga, o'simliklari va hayvonlariga munosabati bunga yaqqol misol bo'la oladi.Yillar davomida olib borilgan an'analar natijasida kishilar yerni qadrlashni, uning har qarichini muqaddas bilishni o'rgandilar, afsuski, keyinchalik bu tushunchalar eskilik sarqiti sifatida qaraldi va tabiatga munosabat o'zgardi. Insonlar vaqt o'tishi bilan yana tushunib yetdilarki, bobolarimiz bekorga tabiatni e'zozlashmagan ekan, ammo bu vaqtda tabiat anchagina yordamga muhtoj bo'lib qolgan edi. Shundan so'ng yana turli qonunlar, qarorlar qabul qilina boshlandi.Endigi vazifa tabiatni hozirgi holatida saqlab qolish, agar yaxshilash chorasi bo'lsa yaxshilashdan iborat.

#### **II.5. TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA OID MEYORIY**

##### **HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish konsepsiyasida tabiatni muhofaza qilish sohasiga e'tiborni qaratdi. Shu nuqtai nazardan, 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Ana shu qonunda tabiatni muhofaza qilishda xalqaro

aloqalar va birgalikda faoliyat yuritish masalalari ham kiritilgan, jumladan Qonunining 53-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi tuzgan Xalqaro shartnomada ushbu Qonundagidek yoki O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa qonun hujjatidagidan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining qonunlarida birmuncha qattiqroq talablar belgilangan hollar bundan mustasno. Ifloslangan atmosfera havosi, suv havzalari, ko'chib yuruvchi mikroblar va hayvonlar davlat chegarasini bilmaydi. Bu hol birgina davlatni emas, balki barcha davlatlarning o'zaro va xalqaro hamkorlikda bo'lishini talab etadi. Shundagina tabiatni muhofaza qilish ishi dunyo xalqlari manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi, bu o'rinda O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'.I.Yo.K)ning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tuzgan dasturi muhimdir. Unga ko'ra tabiatni muhofaza qilishda mamlakatlar birgalikda quyidagi muammolarga e'tibor berishlari talab etiladi:

## **XULOSA**

O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining huquqiy asoslari Respublika konstitutsiyasida belgilab berilgan bo'lib, uning 55- moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat himoyasidadir" deb, belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari, mazmun mohiyati, tamoyillarining nimalardan iborat ekanligi, Respublikaning birinchi Prezidenti, marhum I.A. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan hamda ilmiy va nazariy asoslab berilgan.

Ilmiy -texnika taraqqiyoti jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonida O'zbekiston Respublikasining barqaror ekologik rivojlanishiga erishish, havo, suv, yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolarning kelib chiqishi bilan bog'liq masalalar hamda tabiat muhofazasiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish va unga rioya etish juda katta ahamiyatga egadir. Respublika keskin o'zgaruvchan, quruq iqlimli mintaqada joylashganligi tufayli, mazkur hududda ekologik siyosatning to'g'ri amalga oshirilishi mamlakatning barqaror taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada mazkur sohada bajarilayotgan keng ko'lamdagi ishlar, qabul qilinayotgan qonunlar ekologik siyosatning amaliy faoliyatini belgilaydi. Mintaqadagi tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy meyyoriy hujjatlarning qabul qilinishi, ekologik xavfsizlikning mintaqaviy muammolarini bartaraf qilish masalalari hozirgi globallashuv davrida yana ham kattaroq ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy aholining manfaatlari, sog'lig'i, salomatligi, kelajak avlodlarning taqdirini o'ylamasdan mintaqaning ekologik holatiga yovuzlarcha tajovuz qilinishi, tabiiy suv havzalaridan noto'g'ri foydalanish, qishloq xo'jaligida o'ta zaharli, kimyoviy moddalarning o'lchovsiz qo'llanilishi, zararli oqibatlariga, rak, o'pka sili, jigar, oshqozon kasalliklari, ayollar kamqonligi, bir yoshgacha

bo'lgan bolalarning o'limi holatlariga olib keldi, bundan tashqari Respublikaning o'simliklar va hayvonot olami genofondiga ham putur yetkazdi.

Mamlakatimizda qishloq, o'rmon va xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin bo'zilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatilib, havo, suv va tuproq muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish chora tadbirlari ko'rilmogda.

Respublikaning atoqli davlat rahbari, birinchi Prezidentimiz, marhum I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalanilgan holda mas'uliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish darkor. Boshlang'ich xom ashyodan tayyor mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o'rnatish lozim".

Respublikada ekologik siyosatni to'g'ri amalga oshirish maqsadida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Yer osti boyliklari to'g'risida", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Dori vositalari va farmasevtika sanoati to'g'risida", "Yerkin iqtisodiy zonalar to'g'risida", "Veterenariya to'g'risida", "Seleksiya turlari to'g'risida", "Tabiiy boyliklar monopoliyalari to'g'risida", "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "O'simliklar karantini to'g'risida", "O'rug'chilik to'g'risida" kabi bir qancha qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish konsepsiyasida atmosfera havosini, suv havzarini, yer va yer osti boyliklarini muhofaza qilishga doimo birinchi darajali masala deb qarab kelingan. Markaziy Osiyo mintaqasida murakkablashib ketgan ekologik vaziyat butun insoniyat oldiga tabiatni, atrof muhitni muhofaza qilishni, agar ana shu muammoni hal etishga zudlik bilan kirishilmasa, uning oqibatlarini o'ta dahshatli bo'lishi va hattoki dunyo tamadduni halok bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi masalani kundalang qilib qo'ydi.



O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun 11 bo'lim, 53 moddadan iborat. U tabiiy muhit sharoitlarini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi, unda tabiatni huquqiy muhofazalash, muhofaza qilish obyektlari, Oliy Majlisining tabiatni muhofazasiga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi, Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati va boshqaruv mahalliy idoralarining Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ushbu sohadagi vakolatlari keng ko'rsatib berilgan.

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi" Qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilinib, u 30 ta moddadan iboratdir. Qonunning 1 moddasida, "Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb yozib qo'yilgan.

"Yer kodeksi" 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan bo'lib, u 14 ta bob, 91 moddadan iboratdir. Yer resurslari, ularni ekologik holati va muhofaza qilish masalalari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Respublikada o'simliklar dunyosini huquqiy muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy tartibi bilan tartibga solingan.

"Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Hayvonlar biosferaning eng asosiy qismi bo'lib, geografik qobiqda kimyoviy elementlarning migratsiyasida katta rol o'ynaydi. Hayvonlar tayyor organik mahsulotlarni iste'mol qilib, biologik modda almashinuvida faol qatnashadi.

Globalashuv jarayonidagi bugungi vazifamiz, yo'l qo'yilgan xatoliklarni oldini olish, tabiatni muhofazasiga butun diqqat e'tiborni qaratish, tevarak atrofdagi ekologik muvozanatni saqlab qolish hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi sifatida Jahon oziq ovqat dasturi 1963 yilda tashkil etilgan bo'lib, 3 mln tonnaga yaqin oziq ovqatni taqsimlash uchun

ma'suldir. Oziq ovqat dasturiga rivojlanayotgan mamlakatlarning kambag'al aholisiga yordam ko'rsatish va jahonda ochlik va nochorlik bilan kurash olib borish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur dastur xizmatidan jahonda 50 mln kishi foydalanadi. Jahon oziq ovqat dasturining xodimlari 4115 kishini tashkil etib, shundan 1525 xodim turli joylar, 581 kishi bosh qarorgoh, 2180 kishi esa favqulodda vaziyatlarda ishtirok etadigan xodimlardir. 1997 yilda dastur hisobiga 53 mln kishiga 2,7 mln tonna oziq ovqat etkazib berildi.

Giyohvand moddalarni nazorat qilish va jinoyatchilik to'g'risida ogohlantirish boshqarmasi-YUNDKP 1997 yil 1 noyabrda tashkil topgan. Uni tashkil etishdan maqsad giyohvand moddalar ustidan nazorat qilish, jamoatchilikni jinoyatdan ogoh etish, xalqaro terrorizm muammolaridan hal etishda BMT imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini nazarda tutadi. Boshqarma quyidagi qismlardan iborat:

- Giyohvand moddalar ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha BMT dasturi;
- Jinoyat to'g'risida ogohlantirish bo'yicha xalqaro markaz.

Dastur giyohvand moddalar ustidan nazorat va bu boradagi BMTning ishini muvofiqlashtiruvchi tashkilot hisoblanadi. Boshqarmaning 1997 -1999 yillardagi byudjeti 168,8 mln dollarga tengdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti quolsizlanish muammolarini tadbiq etish instituti-YUNIDEP, 1980 yilda tashkil topgan bo'lib, dastur quolsizlanish muammolari va ular bilan bog'lik bo'g'liq xalqaro xavfsizlik muammolariga oid mustaqil tadqiqotlar olib borish tavsiya etilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari”, T.; O`zbekiston 1997, 112-120 b.
2. I.A.Karimov “Biz kelajagimizning o`z qo`limiz bilan quramiz”, 7-jild T.O`zbekiston 1999, 121-135 b.
3. I.A.Karimov “Avesto kitobining 2700 yilligiga bag`ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuining ochilishi marosimidagi nutqi”, Xalq so`zi – 2001 yil 6 noyabr
- 4.T.Mirzayev., Z.G`ofurov. “Tabiatni e`zozlash-umumbashariy muammo” T.Yangi asr avlodi,2001y 256-268 b.
5. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Ekologik muammolar” Navoiy, 2007 y 210b.
- 6.P.Sultonov. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari” T.Musiq,2007
7. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Kimyoviy ekologiya” T.Voris nashriyot,2008 y 199b
8. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova., A.Ilyosov. “Gidroekologiya” T.Lider Press,2009 y, 207 b.
9. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Kimyoviy ekologiya” T.”Fan va texnologiya” nashriyoti. 2010-yil, 234 b.